



## HAMID OLIMJON SHE‘RIYATIDA VATAN OBRAZI: BADIY TASVIR VA G‘OYAVIY MAZMUN

**Muallif:** G‘ayrat Majidov Ahadovich <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
mustaqil izlanuvchisi <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20237810>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Hamid Olimjon (1909–1944) she‘riyatida Vatan obrazining badiiy talqini va g‘oyaviy-estetik mazmuni tadqiq etiladi. Tadqiqotda shoirning “O‘zbekiston” va “O‘lka” she‘rlari asosiy tahlil ob‘ekti sifatida tanlangan bo‘lib, ularda Vatan timsolining metaforik va lirik-psixologik ifodasi ko‘rib chiqiladi. Maqolada Hamid Olimjon ijodida vatanparvarlik lirikasining janriy xususiyatlari, obrazlar tizimi va poetik til masalalari ham muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Hamid Olimjon, Vatan obrazi, vatanparvarlik lirikasi, badiiy tasvir vositalari, o‘zbek she‘riyati, lirik qahramon.

O‘zbek adabiyotida vatanparvarlik mavzusi barcha davrlarda markaziy o‘rin tutib kelgan. Bu mavzuning XX asr o‘zbek she‘riyatidagi yuksak ifodasi Hamid Olimjon ijodida mujassamlashgan. Shoir o‘z lirikasida Vatan obrazini nafaqat siyosiy-mafkuraviy, balki chuqur insoniy-falsafiy mazmun bilan to‘ldirib, milliy adabiyotimizga munosib hissa qo‘shdi. Akademik adabiyotshunos Mirtemir domla ta‘kidlaganidek, “Hamid Olimjon tug‘ma va nodir talant edi. Uning qonida, o‘zligida tug‘ma bir zukkolik, shoirona bir sajiya, nurbaxshlik, yorqin qalb va adab ayon”. Shu bois shoir ijodini tizimli tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan birini tashkil etadi.

### Hamid Olimjon ijodida Vatan timsolining shakllanishi

Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tavallud topgan. Uning dastlabki she‘rlari 1926-yildan “Zarafshon” gazetasida e‘lon qilina boshlagan. “Ko‘klam” (1929), “Olov sochlar”, “Poyga”, “Daryo kechasi”, “Chirchiq sohillarida”, “O‘lka” va “Baxt” kabi she‘riy to‘plamlari nashr etilgan. Shoir ijodining muhim xususiyati shundaki, unda Vatan obrazi statik tasvirdan iborat bo‘lmay, dinamik ravishda – tabiat manzaralari, mehnatkash odamlar hayoti va milliy tarix bilan sintezlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Shoir Alisher Navoiyning 500 yilligi yubiley qo‘mitasi a‘zosi sifatida katta ilmiy-adabiy faoliyat yuritgan, “Alpomish” dostonini yozib olish va nashr etish ishlarida bosh-qosh bo‘lgan. Bular shoirning milliy madaniy meros va vatanparvarlik g‘oyalari o‘rtasidagi teran bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi.

## “O‘zbekiston” she‘rida Vatan obrazining poetik tizimi

Olamdagi eng yorug‘ so‘z bu – Vatan. Olamdagi eng qutlug‘ va muborak so‘z bu – Vatan. Insonning bori, borlig‘i bu – Vatan. Tangri tomonidan peshonasiga bitilgan eng aziz yorliq bu – Vatan. Inson, nainki inson butun mavjudotning jonu jahonidan ham qimmat ne‘matdir – Vatan. Inson ko‘p narsalarni tanlay oladi. Bunga uning imkoni bor. Biroq tanlab bo‘lmaydigan bebaho nasiba borki, biz uning VATAN deb ataymiz. Shu bois bo‘lsa kerak, tanlash ixtiyori bo‘lmagan ne‘matlar muqaddas sanaladi. Shu ma‘noda Vatan ham muqaddasdir. Unga sadoqat bilan xizmat qilish esa haqiqiy ma‘noda insoniylik burch hisoblanadi. Ulug‘ bobolarimiz shu yurt va uning xalqini ozod va obod ko‘rish uchun hatto jonlaridan ham kechishgan. Inson Vatani tama-yu minnatsiz, pokiza muhabbat bilan sevadi.

Hamid Olimjon Vatanni pok muhabbat bilan sevgan ijodkor hisoblanadi. Men qachon shu ulug‘ shoir haqida o‘ylaganimda xayolimda bolalikning nurli va beg‘ubor damlari jonlanadi. Inson yuragida bolalik atalmish dilbar kunlar bir umrlik o‘chmas iz qoldiradi. O‘sha damlar xotirasi kishi ong-u shuurini bir dam bo‘lsin tark etmaydi. Bobolar va momolarning aytgan ertaklari, laparlari, topishmoq va matallari yodimizda muhrlanib qolgan. Men ham bolaligim o‘tgan go‘zal qishloq – Xo‘jailmkoni, uning jannatmonad manzalalari, eng muhimi uning adabiyot sevar odamlari haqida to‘lib-toshib so‘zlagim kelaveradi. Nega shundayligini esa izohlay olmayman. Ehtimol, bu kindik qonim topgan yurtga bo‘lgan muhabbatimdandir. Inson ko‘nglida esa bu taxlit muazzam tuyg‘ular shunchaki paydo bo‘lib qolmaydi. Buning albatta zamini bo‘ladi. Bu zamin esa adabiyot. Adabiyot deganimiz Hamid Olimjon kabi yoniq qalb bilan munavvar tuyg‘ularni tarannum etgan adiblarimizning adabiy merosidir. Meni bolaligimdan Hamid Olimjon she‘riyati o‘ziga mahliyo aylagan. Bobolarim, momolarim ustoz shoirimizning “Semurg”, “Oygu va Baxtiyor”, “Zaynab va Omon” dostonlarni qayta-qayta o‘qib berishgan. Bu ertakdagi quyma satrlar yurakka chashma suvlari kabi oqib kirardi. Ana go‘zal misrlar buloq suvlari kabi tiniq, shaffof. Chanqog‘ingni bosadi. Ha, tashna dilning chanqog‘ini sodda va betakror, ayni paytda ohanrabo va samimiy so‘zlar bilan qondirish mumkin. Bizning ko‘nglimiz Hamid Olimjon she‘rlariga hamisha tashna bo‘lgan. Takror-takror eshitib to‘ymas edik. O‘qish va yozishni o‘rganganimizdan keyin esa Hamid Olimjon kitoblarini o‘zimiz topib o‘qiydigan va davralarda yod aytadigan bo‘ldik.

Bu ulug‘ shoirning ham bir satri Vatan haqida saboq beradi. Uni o‘qigan odam bu ulug‘ va bepoyon mamlakatni o‘zgacha mehr va muhabbat bilan sevib qoladi. Hamid Olimjon merosi ana shunday sehrli va hikmatlarga boy she‘riyatdir. O‘zbekiston qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov ustoz Hamid Olimjon haqida shunday yozgan: “O‘zbek she‘riyatida lirikaning eng go‘zal va nafis namunalari, albatta bor. Lekin Hamid Olimjon lirikasi boshqa birorta shoirning lirikasiga aslo o‘xshamaydi. Bu lirika marmar kabi tiniq, lekin soquv emas. Unda tasvir ham, ohang ham bo‘lakchadir” [1: 4].

Shoirning “O‘zbekiston” [2: 244] she‘ri vatanparvarlik lirikasining nodir namunasi sifatida adabiyotshunoslikda alohida o‘rin tutadi. She‘rda Vatan tabiati inson qiyofasida — “Chiroylidir go‘yo yosh kelin, / Ikki daryo yuvar kokilin” tarzida antropomorfik metafora vositasida tasvirlanadi. Bu badiiy usul lirik sub’yektning ona yurtga nisbatan oilaviy-insoniylik tuyg‘usini aks ettiradi. She‘rdagi “Bunda bulbul kitob o‘qiydi, / Bunda qurtlar ipak to‘qiydi” misralarida esa anafora vositasida vatanning madaniy va iqtisodiy qudrati tarannum etiladi.

Bu poetik til vositalari majmui she'rning g'oyaviy-badiiy birligini ta'minlaydi:

*Vodiylarni yayov kezganda,  
Bir ajib his bor edi manda...*

Bu she'r, eng avvalo, o'quvchini O'zbekistonning betakror tabiati bilan tanishtiradi. Shunchaki, emas. Quyma, betakror so'zlar, o'ziga xos sifatlar, shoirona tasvirlar, ajib va nurli o'xshatishlar, go'zal va yoqimli qiyoslar bilan tanishtiradi. Bu yurtni yayov kezish kishi ko'nglini ajib hislarga oshyon etadi. Shoirning misralari o'z so'zlaringga aylanib yuragingni shu'lalantirib yuboradi.

*Chiroylidir go'yo yosh kelin,  
Ikki daryo yuvar kokilin.  
Qorli tog'lar turar boshida,  
Gul vodiylar yashnar qoshida.  
Chor atrofga yoyganda gilam,  
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.*

Ko'z o'ngingizda butun mamlakat namoyon bo'ladi. Xushsurat kelinchak kabi go'zal yurtni sevmay bo'ladimi, axir. Kokillarini yuvib turgan daryolar bu o'lkani yana ham ko'rkam, yana go'zal bo'lishi ta'minlaydi. Uning qorli tog'lari, gul vodiylari vasfi qalbingizni hayratlantirib yuboradi. Bu hayajon esa sizning bur umrlik hamrohingiz aylanadi-qo'yadi.

Shoir qalbiga bu kabi tuyg'ular o'z-o'zidan kelib qolgani yo'q. U bu misralarni yozgunga qadar odamlar orasida yurib hikoyalar tinglagan, shu jafokash va mehnatkash elning hayoti ko'rgan va o'rgangan. Buyuk xalqning buyuk farzandi sifatidagi xulosalar ham shu tufayli satrlarga ko'chgan.

*Bunda bulbul kitob o'qiydi,  
Bunda qurtlar ipak to'qiydi.  
Bunda ari keltiradi bol,  
Bunda qushlar topadi iqbol.*

Shoirning bu so'zlari kishi ko'ngliga ana shunday yorug' tuyg'ularni beradi. Mana bu misralar esa go'yoki shoirning duosi yanglig' yuraklarda aks-sado beradi.

*Shunday o'lka doim bor bo'lsin,  
Shunday o'lka elga yor bo'lsin.*

Maqsud Shayxzoda domla aytganidek: "Hamid she'rining ruhi – ona tuproqning husnidan va o'zbek xalqining azaliy qayg'ularidan, ozodlik va baxt yo'lidagi olovli istaklaridan oziqlanib, parvarish topdi" [3: 11]. Shu bois uning she'rlari qalblarga asr osha nur-ziyo bag'ishlayveradi.

**"O'lka" she'rida lirik qahramon va Vatan munosabati**

*Men dunyoga kelgan kundanoq,  
Vatanim deb seni uyg'ondim.*

*Odam baxti birgina senda,  
Bo'luriga mukammal qondim.*

*Qulog'imga noming kirganda  
Qumlik kabi tashna boqurman.  
Sening jannat vodiylaringdan  
Nahrlarday to'lib oqurman.*

*Bilsinlarkim: yoldoshim bo'lmas  
Ko'zda yoshi bilan kulganlar,  
O'zlari bor, tillari hayot,  
Lekin yurak-bag'ri o'lganlar.*

*Har aytganing buyuk jangnoma,  
Qayga desang qaytmay keturman.  
Ko'zlarimni yummasman aslo,  
Daryo kabi uyg'oq o'turman.*

Mana "O'lka" [4: 217] she'ring to'liq matni. Bu she'r ham "O'zbekiston" qasidasi kabi ko'ngillarga yorug' tuyg'u va umidlarni armug'on etadi. "O'lka" she'ri Vatanga bo'lgan muhabbatni lirik qahramonning ichki kechinmalari orqali ifodalaydi. Adabiyotshunos olim Hotam Umirov ta'kidlashicha, she'rning to'rt bandi har biri mustaqil mazmun-ohangni saqlagan holda, irmoqlar singari birlashib, "Vatanga muhabbat"ni bir butun va go'zal qilib jonlantiradi [5: 516–517]. Xususan, "Men dunyoga kelgan kundanoq, / Vatanim deb seni uyg'ondim" misralari lirik qahramonning ontologik mansubligini ifodalaydi. "Daryo kabi uyg'oq o'turman" misrasidagi gidromorfik metafora esa lirik qahramonning vatan oldidagi doimiy tayyorlik holatini simvolik ravishda aks ettiradi. Tadqiqotchi Ummat To'ychiyev band tushunchasiga berilgan ta'rif asosida aytish mumkinki, har bir band "ritm va vazn jihatidan o'zaro aloqador, mazmun va intonatsiya jihatidan tugal" bo'lib, umumiy lirik ohangning yaxlitligini ta'minlaydi [6: 162].

Yuqorida bayon etilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, Hamid Olimjon she'riyatida Vatan obrazi ko'p qirrali semantik tizimni tashkil etib, antropomorfik, gidromorfik va floristik metaforalar orqali ifodalanadi; ikkinchidan, shoir lirik qahramonining Vatanga munosabati shaxsiy-intim tuyg'ularning umummilliy g'oyaviy mazmun bilan sintezlashuvi orqali namoyon bo'ladi; uchinchidan, Hamid Olimjon vatanparvarlik lirikasi o'zbek poeziyasida janriy-uslubiy mustaqilligi bilan ajralib turishi va keyingi avlod shoirlari ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ijodiy maktab darajasiga ko'tarilgan bo'lishi bilan adabiyotshunoslik tadqiqotlarida munosib baholashni taqozo etadi.

Hamid Olimjon she'riyati adabiyotshunos olim Naim Karimov ibراسi bilan aytadigan bo'lsak, doimo tirik. U biz bilan birga. U biz uchun va kelgusi avlodlar uchun hamisha zamondosh bo'li qolaveradi [7: 6].

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. A. Oripov Maftunkor she'riyat. H.Olimjon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019. – B. 4.
2. H. Olimjon. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 1979. 244 b.

3. M. Shayxzoda. – Toshkent: “Sharq yulduzi” jurnali, 1952, 12-son. – B. 11.
4. H. Olimjon. Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 21.
5. U. To‘ychiyev. O‘zbek poeziyasida barmoq sistemasi. – Toshkent: Fan, 1966. – B. 516-517.
6. H. Umirov. Saylanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2025.
7. N. Karimov. Hamid Olimjon shoir hayoti va ijodidan lavhalar. Toshkent: Yosh gavrdiya, 1979. – B. 6.